
# Prezident maktabidagi uchrashuv

Ta’lim-tarbiya vositalaridan biri sifatida yoshlar va ilm-fan ahli o‘rtasida davra suhbatlari, seminarlar, uchrashuvlarning o‘tkazilishi o‘z amaliy natijalarini bermoqda.

Joriy yil 12-noyabr kuni O‘zR FA prezidenti Bexzod Yuldashev va Prezident maktabi o‘quvchilari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Unda akademik B.Yuldashev o‘quvchilarga borliqning tuzilishi va koinotning paydo bo‘lishi haqida ingliz tilida ma’ruza o‘qidi. Ushbu ma'ruza O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi yetakchi olimlari tomonidan rejalashtirilgan turkumlarning birinchisi edi.









Bunday uchrashuvlarning tashkil etilishi yoshlarni ilm-fanga jalb qilish uchun juda muhimdir.